

## O'QUVCHILARNING BORLIQQA BO'LGAN MUNOSABATINI BILISHDA ANTROPOLINGVISTIK METODDAN FOYDALANISH

Nurxon Mo'minova

ADPI o'zbek tili va dabiyoti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7306672>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarning borliq haqidagi tushunchalarini kengaytirishda antropolinguistikadan foydalanish, buning uchun esa "Reportaj" metodi qulay ekanligi haqidagi fikrlar yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* antropolinguistik, metod, borliq, antroposentizm, psixolinguistika, reportaj, tadqiqot, publistik.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНТРОПОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МЕТОДА В ПОЗНАНИИ ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К СУЩЕСТВОВАНИЮ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается использование антropolингвистики в расширении представления о бытии учащихся школьного возраста, и для этой цели удобен метод «Репортаж».

**Ключевые слова:** антropolингвистика, метод, экзистенция, антропоцентизм, психолингвистика, репортаж, исследование, журналистика.

### USING THE ANTHROPOLINGUISTIC METHOD IN KNOWING STUDENTS' ATTITUDE TO EXISTENCE

*Abstract.* This article discusses the use of anthropolinguistics in expanding the understanding of existence of school-aged students, and the "Reportage" method is useful for this.

**Key words:** anthropolinguistics, method, existence, anthropocentrism, psycholinguistics, reporting, research, journalistic.

### KIRISH

Yurtimizning mustaqillik yillarda ta'lif tarbiya tizimini isloq qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston hukumati ta'limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda. Ta'lifning bosh bo'g'ini, bu fan va uning doimiy rivojlanishidir. Shuning uchun ham, Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismida: fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi hisoblanadi.

Shuning uchun hozirgi ilmiy-texnikaviy jadal rivojlanish davrida, ilmiy va ilmiy-texnikaviy axborotlarning intensiv ravishda ko'payib borishi, turli fanlardagi bilimlarning o'zgarib, yangilanib borish sharoitida, zamonaviy texnologiyalarning barcha sohalarga kirib borish vaqtida, oliy o'quv yurtida ta'lif yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ayniqsa, ularning mustaqil ravishda har bir ishda ilmiy-ijodiy yondashishlari, olingan yangiliklarni tadbiq eta bilishlari talab etiladi.

### METOD VA METODOLOGIYA

Bilamizki bugungi kun ilm - fan sohasida kognetiv fikrlar rivojlanib bormoqda. Hamma fanlar qatori tilshunoslik ham kognetiv lingvistika paydo bo'lib, uning bir qancha yo'nalishlari ham rivojlanib bormoqda

Ulardan biri antropoligistikadir. Antroposentizm nazariyasi asosiga qurilgan bu yangi atama barcha ongdagi faoliyat xususan, til va nutq inson omili bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Insonning borliqqa bo'lgan munosabati esa, uning nutqida qanday o'z aksini topishiga qarab insonnung fikrlash doirasi, bilishga bilgan munosabati o'rganiladi.

Bunday tadqiqotlarda yana bir yangi soha psixoligistik yordamga keladi. O'quvchilarning borliqni bilishga bo'lgan mumosabatini quyidagi "Reportaj" metodi orqali bilish usulini tushuntirib o'tamiz.

Bu metod 9- sind ona tili darsida nutq uslublarida "Publististik uslub" mavzusi o'tilyotgan dars mashg'uloti paytida qo'llanilishi mumkin.

Darsning maqsadi: publististik uslubni tushuntirish orqali o'quvchilarning borliqni bilishga bo'lgan munosabatini o'rganish.

## TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Darsning vazifasi: - publististik uslub haqida tushuncha berish;

-bu uslubdan tog'ri foydalanishni o'rgatish;

- publististik matn yaratish orqali ularni bilishga bo'lgan munosabatini o'rganish.

Darsning usuli:

"Repartaj", Kichik guruhlar bilan ishslash, Tes, suhbat.

Mavzu yuzasidan slayd va videoroliklardan foydalanish.

- mavzuga oid slayd qo'yiladi va dars avvalidan videorolik namoyish qilinadi.

Darsning borishi.

- Kirish qismida o'quvchilardan OAVni qanday kuzatishlari haqida kichik suhbat o'tkaziladi. Ularning fikri eshitiladi;

- Savol - javob tarzida o'tgan mavzu so'raladi;

Darsning yangi bilim berish qismida o'qituvchi nutq uslublarini takrorlab, publististik uslub haqida tushuncha beriladi;

- Kitobdag'i mashqlar guruhlarga bo'lingan holda doskada bajariladi;

- Dars davomida o'quvchilarga proyektr orqali "Davr" informatsion dasturidan kichik reportaj namoyish qilinadi;

- O'quvchilarning yangi olgan bilimlari yuzasidan kichkina test sinov o'tkaziladi;

- Dars so'nnginda esa, "Reportaj" metodi qo'llaniladi.

- Uyga vazifa beriladi.

## "Reportaj" metodi haqida.

Ushbu metodda o'quv xonasiga bir jinoyat holati ko'rsatiladi. Ya'ni bir xona, ushbu xonada jinoyat sodir etilgan. Yerda har xil jihozlar, guldon, kitoblar, keraksiz qog'ozlar sochilib yotibdi, bir ikki joyda non izlari ham bor. O'quvchi ko'z o'ngida gavdalangan bu manzara uni fikrlashga ijodiy tafakkur etishga undaydi. O'qituvchi mana shu holat yuzasidan o'quvchilarga publististik uslubda jurnalist sifatida maqola yoki reportaj tayyorlashni topshiradi. O'quvchilar uni yozib navbatma navbat aytib berishadi. Ular ko'rinishga har xil nuqtayi nazar bilan qaragan bo'lishlari mumkin. Masalan, rejortajda u o'g'rini topganmi, topmaganmi, yoki topilishiga umid qilganimi yoki umuman o'g'ri haqida gapirmaganmi mana shu jihatlar tahlil qilinadi.

## XULOSA

Bu orqali o'quvchilarning bilishga qaratilgan bilimini, fikrini ifoda etishda til vositalaridan qay darajada foydalana olishi kabi jihatlarga qaraladi.

Bu metod orqali o'quvchilarning ruhiyati, ularning atrof-muhitga munosabati va o'z fikrini nutqda qanday ifodalashini bilib olish mumkin. Shu orqali darsdan ko'zlangan maqsad amalga oshiriladi.

## REFERENCES

1. Gryaznov V.M. Metodologiya nauchnogo tvorchestva. M., izd.RUDN. 2000 g.
2. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.T., 2009
3. A.Nurmonov. Lingvistik tadqiqot metodlari. T., 2010.4. Antropololingvistik nuqtasi nazardan
4. Kognetiv tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari. Maqola. A.Navoiy nomidagi TD o'zT va AU tayanch dokterant
5. Гелгардт Р.Р., Растворгувев В.Н. Методологический аспект в изучении предметной области научного познания и статус современной филологии // Язык и речь как объекты комплексного филологического исследования. Калинин, 1981.
6. Glazunov N.M. Foundation of scientific research.Kiev 2012.